

SUG'URTA FAOLIYATI VA UNING TURLARI

Maftuna Ulug'murodova Mardon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti moliya fakulteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada sug'urta faoliyati, sug'urta shartnomasida qo'llaniladigan franshiza moliyaviy instrumenti va sug'urta bozori haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada franshiza nima ekanligi, uning sug'urta shartnomasidagi o'rni hamda uning turlari muhokama etiladi. Sug'urta franshizasining sug'urta shartnomasi ishtirokchilari uchun afzalliklari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta sohalari, sugurta franshizasi, franshiza turlari, sugurta bozori haqida fikr yuritilgan.

Sug'urta — tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug'urta ko'p asrlik tarixga ega. Sug'urta muassasalari dastlab o'rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavfxatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Keyinchalik boshqa sohalarga g'am yoyildi. Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug'urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita bo'lgan.

Sug'urta jamg'armasi milliy iqtisodiyot xazina jamg'armasining muhim va o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi, milliy iqtisodiyotni turli tasodiflardan moliyaviy himoya qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta ishi nihoyatda taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sug'urta badal (mukofot)lari hajmi o'rtacha 8—12 % ni tashkil etadi.

Sug'urta qilinadigan ob'ektga qarab mulkiy sug'urta (yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini, binolar, ekinlar, uy hayvonlari, mol-mulk, transport vositalarini sug'urtalash), shaxsiy sug'urta (inson, sog'lig'i, hayoti, mehnat qobiliyatini sug'urtalash), uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik sug'urtasi (transport egalari fuqarolik javobgarligini, kredit oluvchilarning bank oldidagi kreditni o'z vaqtida qaytarish javobgarligini sug'urtalash va boshqalar)ga bo'linadi. Sug'urta tartibi va shartlari, turlari, ob'ektlari mamlakatdagi qonunchilik bilan

belgilanadi. Mustaqillikka erishguniga qadar 1918—91 yillarda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini sobiqittifoq miqyosida yagona bo‘lgan davlat sug‘urtaidorasi („Gosstrax“) va uningittifokdosh respublikalardagi boshqarmalari amalga oshirgan.

Sug‘urta quyidagi sohalarga bo‘linadi:

hayotni sug‘urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul ta‘minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilish, bunda shartnoma bo‘yicha sug‘urtaning eng kam muddati 1 yilni tashkil etadi hamda sug‘urta pullarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizni o‘zichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to‘lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug‘urta (shaxsiy, mulkiy sug‘urta, javobgarlikni sug‘urta qilish hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta turlari).

Sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega: Sug‘urtalovchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasining tuzilishi vaijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug‘urta agenti hisoblanadi. Sug‘urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug‘urta agenti bo‘la olmaydilar. Bozor munosabatlari faol va jadal rivojlanayotgan bugungi dunyoda sug‘urtaiqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Sug‘urta munosabatlarining huquqiy mohiyati sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasidagi tavakkalchiliklarni taqsimlashga asoslangan. Sug‘urta taraflarning mulkiy yo‘qotishlarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Qoidaga ko‘ra, sug‘urta xavflari ma‘lumbir kutilmagan salbiy hodisalarning ro‘y berishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular sodir bo‘lganda sug‘urta shartnomasi amalga oshiriladi.

Oddiy misol keltirsak, taksi haydovchisi avtohalokatga uchrab, mashinasiga jiddiy shikast yetkazadi. Bunday holda, mashina nafaqat transport vositasi, balki pul topish vositasi ham hisoblanadi. Shunday ekan, avtomashina egasi mashinani tezroq ta‘mirlatmasa, pul topishimkoni bo‘lmaydi. Avtomobilni ta‘mirlash esa juda qimmatga tushish ehtimoli mavjud. Holbuki, mashina egasida har doim ham uni ta‘mirlatish uchun yetarli mablag‘ bo‘lmasligi mumkin. Ana shunday holda mashina egasi mashinasini sug‘urta qildirgan bo‘lsa, mashinaga yetkazilgan zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplab beriladi. Lekin mashinani sug‘urta qildirishi uchun ketadigan xarajat ham haydovchi uchun qimmatlik qilishi mumkin. Bunday



vaziyatda ham haydovchi uchun, ham sug'urta kompaniyasi uchun foydali bo'lgan mexanizm mavjud. Bu mexanizm sug'urta franshizasideb ataladi

Sug'urta shartnomasida franshiza nazarda tutilishi mumkin. Sug'urta franshizasining o'zi, dastlab, Fransiyada vujudga kelgan va fransuz tilidan tarjima qilinganda "imtiyoz" degan ma'noni anglatadi. Uni chegirma deb ta'riflash ham mumkin.

Sug'urtada franshiza bu sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti to'lab bermaydigan zararining bir qismi. Franshizaning mavjudligi va uning miqdori sug'urta shartnomasida ko'zda tutiladi.

Sug'urta franshizasi asosan Binolar, inshootlar, inshootlar va boshqa ko'chmas mulk obyektlari sug'urtalashda keng qo'llaniladi. Bunday sug'urta turlarida chegirma miqdori obyektning o'z narxiga nisbatan ahamiyatsiz bo'lishi mumkin va sug'urtalovchilar bunga ko'proq rozi bo'lishadi.

Bundan tashqari, sug'urta franshizasi tibbiy sug'urta sohasida ham keng qo'llaniladi. Buning sababi, ko'plab sug'urtainqirozlari davrida tibbiy xizmatlarning narxi doimiy ravishda oshib bordi, ammo sug'urtalovchining sug'urta mukofoti miqdori bir xil darajada saqlanib qoldi, bu esa muqarrar ravishda sug'urta kompaniyasining yo'qotishlariga olib keldi.

Sug'urta franshizasi nima ekanligini batafsilroq tahlil etadigan bo'lsak, sug'urta franshizasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi sug'urta tovonning ma'lum bir qismini o'zi qoplashni o'z zimmasiga olgani holda sug'urta kompaniyasini zararining bir qismini to'lashdan ozod etadi.

Franshiza shartli va shartsiz franshizaga bo'linadi. Bir vaqtlar Y.B. Fogelson shartli va shartsiz franshizaning quyidagi ta'rifini berdi: "...shartli franshizingda yetkazilgan zararining to'liq miqdorida tovon to'lanadi, lekin agar zarar miqdorichegirib tashlanadigan miqdordan oshib ketgan bo'lsa; shartsiz chegirib tashlash amalga oshiriladi, bunda faqat qaytarib olinadigan to'lovdan oshib ketgan qismi to'lanadi

Franshiza - sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi. Franshiza - ham sug'urta summasidan foizlar ko'rinishida, ham aniq summada o'rnatilishi, hamda shartli va shartsiz bo'lishi mumkin. Shartli franshiza o'rnatilganda, sug'urtalovchi franshiza miqdoridan ko'p bo'lmagan zarar uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi. Shartsiz franshiza o'rnatilganda esa, sug'urtalovchining javobgarligi zarardan



franshiza miqdorini chegirib qolgan holda aniqlanadi. Shartli franshiza sug'urtalovchini sug'urta shartnomasida aniq yoki sug'urta summasidan foizlarda ko'rsatilgan franshiza bilan belgilangan miqdordan ko'p bo'lmagan zarar uchun javobgarlikdan ozod qiladi. Agar yetkazilgan zarar franshizadan oshsa, sug'urtalovchi sug'urta qoplamini to'liq to'lashi shart

Masalan: Sug'urta shartnomasi 1% yoki 1 000 000 so'm shartli franshizani, 100 mln so'm (100%) sug'urta summasini nazarda tutadi. Korxona mol-mulkiga yetkazilgan haqiqatdagi zarar 1 500 000 so'mni (1,5%) tashkil qildi. U franshiza summasidan oshishi sababli sug'urta kompaniyasi 1 500 000 so'm to'lab, uni to'liq qoplashi kerak.

Shartsiz franshiza qat'iy tarzda, hech qanday shartlarsiz qo'llanadi. U ham sug'urta shartnomasida sug'urta puli summasi yoki foizi tarzida ko'rsatiladi va sug'urta qoplami summasidan chegiriladi. Agar zarar summasi shartsiz franshizadan kam yoki unga teng bo'lsa, sug'urta kompaniyasi uni qoplamaydi.

Sug'urta bozori - ma'lum bir pul munosabatlari sohasi bo'lib, unda savdo-sotiq obyekti sifatida sug'urta himoyasi qatnashadi hamda unga talab va taklif shakllanadigan maxsus iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. Sug'urta bozori keng ma'noda sug'urta xizmatlarining oldisotdisi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yigindisini aks ettiradi. Sug'urta bozorining obyektiv asosini kutilmagan baxtsiz hodisalar oqibatida yetkazilgan zarami bartaraf etish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash tashkil etadi. Qolaversa, sug'urta bozori iqtisodiyotni qo'shimcha moliyalashtirishda ham muhim o'rin tutadi.

Sug'urta bozori faoliyat yuritishining asosiy sharti bo'lib sug'urta xizmatlariga jamiyat ehtiyojining mavjudligi va ushbu ehtiyojni qondira oladigan sug'urtalovchilarning mavjud bo'lishi tushuniladi. Faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta bozori turli tarmoq bo'limlarini biriktirgan murakkab, integratsiyalashgan tizimni o'zida aks ettiradi. Sug'urta bozori ishtirokchilan sifatida sotuvchilar, xaridorlar va vositachilar hamda ularning uvushmalari qatnashadilar.

Sug'urta xizmatlarining taklif etilishi yetarli darajada ixtisoslashgan va moliyaviy barqaror, ehtimoldagi sug'urtalanuvchilarning talablarini qondirishga layoqadi sug'urta tashkilotlarining mavjud bo'lishi orqali ta'minlanadi. Investorlarning sug'urta kompaniyasiga qiziqishi, sug'urta tariflarini hisoblab chiqish uchun zarur statistik va axborot bazasining mavjudligi, moliya bozorining sug'urta

kompaniyalarining investitsiyalarining qaytarilishini va daromadlilikini kafolatlaydigan darajada samarali faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, sug'urta kompaniyalarida malakali menejerlarning va sug'urta xizmati anderraytingi bo'yicha mutaxassislar mavjudligi sug'urta bozorini shakllantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, sug'urta franshizasi u sug'urta pulini arzonlashtirishimkonini beradi, chunki franshiza miqdori bevosita sug'urta mukofoti miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular o'rtasida qaytar bog'liqlik kuzatiladi: franshiza qancha yuqori bo'lsa, sug'urta mukofoti shuncha kam bo'ladi va aksincha. Ushbu nozik jihatdan sug'urtalashdan korxona emas, balki garovga oluvchi bank ko'proq manfaatdor bo'lgan holatlarda garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtalashda foydalanish mumkin. Ushbu holda eng ko'p franshiza yordamida sug'urta xarajatlari imkonini boricha kamaytirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Страхование. / Учебник под. ред. Т.А.Федоровой. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: «Магистр», 2008.
2. Гвозденко А.А. Страхование. – М.: «Проспект», 2008.
3. Денисова И. Страхование. – М.: «МарТ», 2009.
4. Ермасов С.В. Страхование. – М.: «Юрайт», 2011.
5. Игошин Н.А. Страховое право. – М.: «Юнити», 2010.
6. Короткова Ю.Е. Краткий курс по страхованию. Учебное пособие. – М.: «Окей-книга», 2010.
7. Шеннаев Х.М., Кенжаев И.Ф. Чет мамлакатлар суғуртаси. – Т.: «Янги нашр», 2012.
8. Шеннаев Х.М., Очилов И.К., Кенжаев И.Ф., Широнов С.Э. Суғурта иши. – Т.: «iqtisod-Moliya», 2014.
9. Шеннаев Х.М., Халикулова Г.Т. Суғурта маркетинги. – Т.: «Янги нашр», 2012.